

Jumaniyoz Jabborov. Uyqusiz kecha (ikki pardali drama)

Qatnashuvchilar:

Akbar ota

Mohira

Tohira – otaning qizlari.

Shoira

Adham

Bahrom – otaning kuyovlari, ya'ni bojalar.

Botir

Dilbar – otaning nabirasi.

BIRINCHI PARDA

Akbar otaning osoyishta va sarishta xonadoni. Charog'on va ko'rkam zal. Divanda yoshgina talaba qiz Dilbar jurnal varaqlab o'tiribdi. Eshik taqillaydi. Qiz eshikni ochadi. Ostonada quvnoq qiyofada shu xonadonning o'rtancha qizi Tohira va uning eri Bahrom ko'rinadilar.

Dilbar. Assalomu alaykum, pochcha, ammajon. Marhamat, marhamat!

Bahrom. Vo alaykum assalom, Dilbarginam, yaxshimisan, jiyan. O'zginang o'tiribsanmi, zerikib?..

Tohira. Donogina Dilbarim, mehribon jiyanginam, nega zerikar ekansan?

Yaxshimisan, o'qishlaring qalay? Ota-onangni sog'inmayapsanmi?

Dilbar. Rahmat, ammajon. Imtihonlarga tayyorlanib o'tiribman. Mana buyoqqa, divanga o'tiringlar.

Bahrom. Rahmat. Baxtli bo'l, iloyim. Amakim qanilar?

Dilbar. Bobom halizamon kelib qoladilar. Guzarga, sartaroshxonaga chiqqan edilar.

Bahrom. Fason bo'lib kelarkanlar-da boboy.

Tohira. O'zlariga qarab yursalar yaxshi-da. Onamning vafotidan so'ng ancha cho'kib qoldilar. Qanday odam edilar-a...

Bahrom. Hammaning boshida bor gap bu. Hech kim dunyoga ustun bo'lgan emas. Ey, yolg'izlik qursin... Hech kimni jufti halolidan bemahal ajratmasin.

Tohira. Shunaqa deysizu... ba'zida tiriklay taqib qilishgayam tayyorsiz...

Bahrom. O'zing ham oshirib yuborasan-da. Janjalga tap-tayyor turasan. Jahling burningni uchida...

Tohira. Aytganimni olib bermaganingizdan keyin...

Bahrom (ijirg'anib). E, o'lsin-e.

Tohira. Dugonalarim to'yu hashamda tilloyu brilliantlarini namoyish qilib o'tirsa-yu, men chekkada shumshayib qolaversam... Kimga yoqadi?

Bahrom. Bu gaplar yarashmaydi senga, xotin. Kimsan falonchi biznesmenning ayolisan!

Tohira. Oti ulug', suprasi quruq.

Bahrom. Yana eski gap...

Tohira. O'tkirbek akam o'sha birinchi ayamizdan. Lekin o'rtada hech qanday o'gaylik bo'lmagan.

Bahrom. Shunday deymizu... baribir seziladi-da. Katta ishda ekanlar sizlarga mundoq bir iqtisodiy ma'noda qayishmaydi-ku... (Uyni, zalni suqlanib kuzatib) Shunday hashamat ham... o'sha kishining kuchi bilan-da...

Tohira. Kechirib qo'yasiz. Boyliklari bo'lsa, o'zlariga! Dadam butun umrini, mehrini, bor-yo'g'ini bag'ishlab o'zlari tiklaganlar bu imoratni.

Bahrom (gapni burib). Lekin qaynatamning irodasiga qoyilman. Bir emas, ikki xotindan ajralish... og'ir... og'ir... Bu — tragediya!

Tohira. Nega yolg'iz bo'ladilar. Bir emas uchta qizlari, uchta suqsurday kuyovlari bor-ku. O'g'illari katta bir shaharning obro'li xo'jayinlaridan.

Bahrom. Ha, endi, shunchalik aytdim-da, Tohiraxonim (chetda tuzatib qo'yilgan dasturxonni ko'rib). E, e, tayyorgarlik katta-ku. Shishalar ham bor. Yana kimlardir kelishadimi?

Tohira. Nimaga chaqirtirgan ekanlar?

Dilbar. Bilmadim... Men hozir... (chiqadi).

Tohira (o'ylanib). Tug'ilgan kunlari emas, unda bilardim. To'y maslahatiam emas. Mehr ko'zda deydilar. Shunaqa ko'rsatuv ham bor televizorda. Odamlar ellik yildan keyin ham bir-birlarini topishyapti.

Bahrom. Biz esa bir joyda turib, bir shaharda yashab... har zamon-har zamon qo'ng'iroq qilib turishgayam erinamiz. Tohiraxon!

Tohira. Labbay?

Bahrom (uyni kuzatib). Esingizdami?..

Tohira. Nima?

Bahrom. Nima bo'lardi? Sizga muhtalo bo'lib, shu uy atrofida girdikapalak bo'lganlarim.

Tohira. Men qaydan bilay, yuragingizdan qanday gaplar o'tganini. Ko'pincha shirakayf holatda bo'lardingiz.

Bahrom. Yo'q. Men xayolingiz bilan mast bo'lardim. Sizga erishguncha nimalar o'tmadi boshimdan.

Tohira. O'sha shirakayfligingiz...

Bahrom. Oshiqligingiz deng...

Tohira (davom etib). O'sha shirakayfligingiz binoyidek ikkinchi kasbu koringiz bo'lib qoldi-ku. Mana hozir ham ancha tayyorsiz. Adamdan uyalamani.

Bahrom. Yanglishasiz, jonidan, yanglishasiz. Men hamon o'sha, o'sha... maftuningizman, muhtalongizman: «Ko'rgali husningni zoru muhtalo bo'ldim senga, Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldim senga». Mana shunday xonadonning kuyovi bo'lish asriy orzuyim edi.

Yana eshik taqillaydi. Dilbar eshikni ochadi. Bo'sag'ada Akbar otaning to'ng'ich qizi Mohira eri Adham bilan ko'rinadi. Bahrom bojasini quchoq ochib qarshilaydi.

Bahrom. Ey, tavba, ey, tavba. Adhamjon aka, ko'rar kun bor ekan-ku...

Yaxshimisiz, Mohiraxon opa? (Adhamni ko'rsatib) Shu beparvo akam bilan

murosayi madora qilib yurganingiz uchun sizga o'nta... (bojasining boshiga ishora qilib) haykal qo'yilsa ham kamlik qiladi!

Adham. Askiyaning ham rasvosini chiqardingiz-da, boja. Aqlli boshdan tushib ketadi yomon soch.

Mohira. Haykalni boshimga uramanmi. Menga o'zlari sog' bo'lsalar – shu katta davlat. (Tohiraga) Nima gap ekan, Tohira, bilmadingmi?

Tohira. Harholda, bejiz emas...yoki shunchalik... Kim biladi yana...

Tohira. Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.

Bahrom. Tinmag'ur otajonimiz biror korxonami, dorixonami ochayotgan bo'lsalar, ajab emas.

Adham. Yo'g'-e! Qaynonam rahmatlik o'lim to'shagida yotib, mendan keyin otalaringizdan tez-tez xabar olib turinglar, deb vasiyat qilardilar. Shu-da...

Aytmoqchi, otamizning o'zlari qaerdalar?

Bahrom (kulib). Sartaroshxonaga ketibdilar.

Adham. Eh, ha... Bunaqa ishlarni joyiga qo'yadi otamiz. Ertaga dam olish kuni... bir shakarguftorlik qilgulari kelgandir-da (o'tirishadi). Bahromjon!

Bahrom. Labbay?

Adham. Biznes ishlaringiz yaxshi davom etyaptimi, har nechuk? Yo haliyam borib kelishning o'zimi?

Bahrom. Judayam oson emas ekan, boja. Beshta do'konni qimirlatib turish uchun ming kovakka kirib-chiqishga to'g'ri keladi.

Adham. Iloyim, kirib-chiqishdan qolmang. Hozir hammaqayam oson emas.

Kallani obdon ishlatish kerak bo'ladi.

Bahrom (yana hazilga olib). Agar o'sha kalla bo'lsa deng.

Mohira (askiyani tushunib). Hazillaringiz qurib ketsin.

Adham. Mana men, masalan, domlaman, har holda, tafakkur kishisiman. Hodisalar mohiyatini aniqlashga intilaman. Etti o'lchab, bir kesish tarafdoriman. Buni ilmiy ishlarimda ham nazariy jihatdan asoslashga uringanman.

Bahrom (kinoya bilan). Bunga ishonchim komil.

Adham. Balli...

Eshik taqillaydi. Dilbar ochadi. Otaning kenja qizi Shoiraxon eri Botir bilan kiradi.

Adham (hayron). Ana xalos, ana xalos. Jamoat jam bo'ldi-ku. Kenjatoy bojamiz Botirjonga bir dunyo olqishlar! Shoiraxon, marhamat! Opajonlaringiz bilan bir yayrashar ekansiz-da bugun...

Shoiraxon (salom-alikdan so'ng). Xudoga shukur. Shunday bir yig'ilishni orzu qilib yurardim. Ming shukur. Nega bemaslahat bo'ldi bunaqa chaqiruv?

Botir. Bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyruq na qilur. Adham aka, tinchlikmi?

Adham. Tinchlik, tinchlik...

Bahrom. Men hayronman. Shaharning uch chekkasida yashayotgan uch oila bir-biri bilan xabarlashmay, qanday qilib bir vaqtda, xuddi bir-biri bilan oldindan maslahatlashganday, ayni bir joyda to'planishi mumkin?

Uch opa-singil ham hayratda bir-biriga tikilishib hol-ahvol so'rashadilar. Bojalar

chekib kelish uchun tashqariga chiqadilar.

Tohira. Bir hisobdan ko'rishib olganimiz ham yaxshi bo'ldi. Gaplar yig'ilib qolgan edi.

Mohira. Bir oy oldingina uchrashganmidik? Gapni yaxshi ko'rasan-da, Tohira.

Shoira. Nima bo'lsayam, yaxshi bo'ldi. Boboyni ziyorat qilib ketamiz.

Mohira. Kechagina tizzalaridan tushmay, soch-soqollarini silab o'tirarding, endi boboy bo'lib qoldilarmi?

Shoira. Bor gap-da. Onamning vafotlaridan so'ng oyog'im tortmaydi shu erga.

Tohira. To'xta, to'xta... Bu choli qurg'ur «uylanaman»ga tushib qolmagan bo'lsin tag'in?

Mohira. Og'zingdan el olsin. Sharti ketib, parti qolgan odamning ustidan kulayapsanmi?

Tohira. Nega kularkanman? Bir vaqtlar mahalla adog'ida turadigan Norjon xola bilan gap-so'z bo'lib, onamni rosa kuydirganlarini eshitganmiz.

Mohira. Bas qil, ey! Ig'volaringga o't tushsin!

Shoira. Balki o'sha ayolni olib kelmoqchi bo'lsalar, bizlardan izn so'ramoqchidirlar...

Mohira. Gapirmang-ey. Shunday koshona saroyini, tayini yo'q kampirga berib qo'yadigan ahmoq yo'q! Ordona qolsin o'sha shum alvasti!

Tohira. Har xil taxminga boravermanglar. Biror masala yuzasidan fikrimizni bilmoqchi bo'lsalar kerak-da.

Shoira. Shu-da, boshqa nima bo'lardi. Voy, hali ko'rasizlar, yaxshi gap bo'ladi, otam dono odam!

Tohira. Yaxshisi, adamning o'zlaridan so'raymiz, yotig'i bilan.

Mohira. Yo'q, o'zim so'rayman, sizlar tomdan tarasha tushganday, pala-partish gapirib qo'yasizlar.

Shoira. Obbo, so'rasangiz so'rayqoling, shuyam martaba bo'ldiyu... Professorning xotiniga hamma narsa mumkin deysiz-da...

Dilbar. Ammajonlar, dasturxonga marhamat. Issiqqina choy olib keldim. Somsayam issiqqina.

Shu payt bojalar hazil-huzul gaplashib, kulishib kiradilar.

Adham (Bahromga, kulib). E, latifangiz ham qurib ketsin. Hamma joyda gapirmang-e bunaqasini.

Dilbar. Dasturxonga marhamat, pochchalar.

Adham. Rahmat, jiyan. (opa-singillarga) Xo'sh, qizlar, zerikmadingizlarmi? Biz ozgina toza havo oldik-da, uzr, uzr.

Bahrom. Ozgina fikrlashib ham oldik.

Adham (hazillashib). Obbo, qassob aka-ey, sizda fikr bo'lar ekanmi, odam quriganday.

Bahrom. Hov, katta kuyov, ko'pam katta ketavermang. Uyingizga to'rt kilo go'sht tashlab ketsak yaxshi-yu... boshqa vaqtda puf sassiq ekan-da.

Botir. Qizishmanglar, qizishmanglar...

Adham. Mana bu boshqa gap. Qani bir piyoladan achchiq ko'k choy ichishaylik. Ko'p o'ylash odamni ishdan chiqaradi.

Bahrom. Bir baloni bilasiz-da, bojajon...

Adham. Buncha «jon-jon»lab qolding. Tashabbusni o'z qo'limga olmasam bo'lmayapti-da, qani, marhamat. Ko'p gap eshakka yuk deyдилar, choydan ichinglar.

Botir. Ayni muddao, chanqab turuvdim.

Bahrom (faylasufona). Bu olam, aslida, turli-tuman uchrashuvlardan iborat.

Ajablanadigan joyi yo'q.

Botir. Shoirona gap bo'ldi-ku, Bahromjon aka, qassobligingizni bilardim-u, bu yog'idan xabarim yo'q ekan... Sizga mehrim tovlanib ketdi.

Bahrom. Ha, endi... bir vaqtlar katta kushxonaning rahbari bo'lib ishlaganim rost.

Qassobchilikmi, olib sotishmi, biznesmi, tadbirkorlikmi — qo'ldan kelganini qilaman. Hozir o'nta hunarning boshini tutganlar ham bor. Mehnatning uyati yo'q. Sizga o'xshab uch-to'rt bet qog'ozni qoralab, gazetma-gazet ko'tarib yurmaymiz-da, o'n-o'n besh so'm chiqarmikin deb...

Adham. Hamma gapdan xabaringiz bor-da, Bahromjon. O'sha qalam haqiga ikki kunlik nosvoy ham bermaydi.

Kulishadilar.

Shu gaplar asnosida Akbar ota kirib, qizlari, kuyovlari bilan ko'rishib, har biriga munosib mehru muhabbat ko'rsatadi.

Mohira. Hali tashqarida rosa kuldilaring-ey, qotib-qotib, bizlar ham eshitaylik.

Tohira. Uyatli joyi bo'lmasa...

Bahrom. Bir ayolning har xil qimmatbaho matolardan tikilgan mingta ko'ylagi bor ekan-u, lekin doim eriga xarxasha qilib: «Kiyadigan ko'ylagim yo'q», — deb nola qilaverar ekan...

Botir. Hammasiga tekkan kasal bu.

Bahrom. Xotining gapini bir og'aynisiga aytgan ekan, og'aynisi maslahat beribdi: «Yaxshisi, bir kimsasiz orolga borib yashanglar, onadan endi tug'ilganday...

O'shanda bu tashvishdan qutulasizlar...»

Mohira (uyalib). Voy, o'lmasam...

Botir. Xo'sh, xo'sh?

Bahrom. Shunda haligi erkak o'Qaynisiga qarab: «E, o'shandayam bizning xotin: «echinadigan hech narsam yo'q», deb to'polon qiladi» der emish. Ha-ha-ha.

Kulishadilar.

Mohira. Yaxshiyam, bu erkaklarning har xil ig'vosi uchun ayollar bor. Bo'lmasa, bularning holi xarob...

Adham. Ana ko'rdingizmi, qilt etgan shabboda ham bo'ron bo'lib boradi xotin-qizlarning nozik diliga.

Botir. Va lekin, hurmatli jamoa, xotin-qizlarimiz haqida bir dunyo samoviy maqtoqlar ham aytilgan. Chunonchi, mana o'shalardan bittasi. Katta bir olimning maqolasini o'qiganman. Mana bunaqa: Qodir Xudoyim erkak zotini yaratgach, o'ylab qolibdi... Nimadir eng muhim narsa etishmay turgan emish. Ayol yo'q!

Baxtga qarshi, odam qoradigan loy ham tugab qolganmish. Shunda, Ollohim oydan ayol jamolini, tundan qoshu ko'zini, majnuntoldan sochini, kamalakdan rang, gullardan hid olib badanini, kiyikdan nafislik va hurkaklikni, tongdan musaffolikni, itdan sadoqatni, asalaridan bol terish xislatini, serfarzand bo'lsin deb, baliqdan uvildiriqni, aytganlari kuy, xonish bo'lsin deb bulbuldan navoni, – hamma narsadan bir chimdim-bir chimdim olib Ayolni yaratibdi. Mukammal dunyo timsoli bo'lgan Ayol Olloh irodasi ila olamga hadya etilibdi!

Adham. Ayollarimiz sha'niga yangragan bu qasidangizdan maqsadni, Botirbek, sezib turibmiz.

Botir. Ana xalos... nima maqsad ekan?

Adham. Singlimiz Shoiraxonni iytimoqchisiz-da... Gap tagida gap bor, harholda... Kulishadilar.

Shoira. Adajon, juda yaxshi qilibsiz-da hammamizni chaqirib...

Tohira. Birvarakayiga. Hozirgi zamon sharoiti uchun bu juda qulay...

Shoira. Ham vaqt, ham dasturxon tejaladi.

Akbar (kulib). Qo'ymaysan-da, shayton, qo'ymaysan. «Tejaladi» deganing nimasi? Men sizlardan jonimni ham ayamayman. Odamlar doshqozonlarni to'ldirib yurtga osh berib yotibdi-ku...

Adham. Fe'lni keng qilish kerak, fe'lni... Hammasi topiladi.

Bahrom. Judayam siz o'ylaganchalik emas, boja. Rosa chopiladi – keyin topiladi!

Botir. Yana qofiyaga o'tib ketdingiz. Qoyil!

Akbar. Xo'sh, qani o'tiringlar-chi, soQinganman juda... Ha, barakalla. Nevaralar, uylar, qo'ni-qo'shnilar... hamma omonchilikmi? Ha, barakalla. Sog' bo'linglar.

Mohira (mehr bilan). Otajonim, otajonginam. Zerikmay yuribsizmi? Sog' bo'ling baxtimizga.

Tohira. Ada, uyoqda O'tkirbek akamlar omon-eson yurishibdimi? Yaqinda gaplashmadingizmi?

Akbar (faxrlanib). Xudoga shukur. O'sha o'zlaring bilgan mashhur korxonaning bosh rahbari bo'ladigan, shekilli, anglashimcha...

Bahrom. O'-o'-o', juda zo'r-ku. Ayni muddao-ku.

Akbar. Akangning o'zlariyam kelib qolishi mumkin. Qizlariga telefon qilib, borarman degan emish.

Shoira. Judayam yaxshi bo'lardi-da, sog'inganman O'tkirbek akamni.

Tohira. Chaqirtirgan ekansiz, ada? Tinchlikmi?

Akbar. Ha, shunday, ko'rgim keldi-da. Sog'inganman deyapman-ku... Bir yayrab ketsanglar, ko'nglim tog'day ko'tariladi.

Shoira. Baribir bilgimiz keladi-da.

Mohira. O'tkirbek akamizni kutsak kerak-da...

Tohira. Yo'q! Topolmadinglar. Adam doim sirli bir gap aytadilar.

Akbar. To aytmaguncha qo'ymadinglar-da, aytsam aytay. (Qizlar va kuyovlar ota so'zlarini anglash uchun quloq tutadilar) Sizlarni chaqirishdan maqsad, aziz farzandlarim...

Shoira (sho'xlik qilib). Shahrimizga revizor kelayotir demoqchisiz-da (kulishadilar).

Akbar. Gapning indallosini aytganda, mahfiy sir ham yo'q. Mana shu uy masalasi,

xolos. (Hamma hayron.)

Mohira. Uy masalasi?! Qaysi ma'noda?

Tohira. Uyga nima qilibdi, masala bo'lib?

Mohira. Biror kemtik joyi bor ekanmi? Ajab, ajab!

Shoira. Qiziq. Ta'mirlash kerak bo'lib qolgandir-da.

Tohira. Nimasini ta'mirlaydi? Yiltillab, jaranglab turibdi-ku!

Mohira. Koshonai shohona!

Tohira. Biror xaridor chiqib qolgandir-da koshonai shohonaga!

Shoira. Hech kimning haqqi yo'q bu dargohga ko'z olaytirishga!

Mohira. Koshonaning egasi — otamiz. Onamiz... (oxiratlari obod bo'lsin), bu joylarni tashlab ketdilar... Ixtiyor otajonimning o'zlarida...

Shoira. Yo'q! Uy hammamizniki. Umumiy mulkimiz. Qandaydir begona yulg'ich «ship» etib ildirib ketadigan buyum emas.

Tohira. Ko'k pulning shu'lasi ko'zni qamashtirsa-chi...

Shoira. Savdogarlikni yig'ishtiringlar... Men rozi bo'lmagunimcha, bitta g'isht ham berilmaydi birovga.

Mohira. Chiqqan qiz chig'iriqdan tashqari, jimgina o'tir, mahmadona.

Adham. Palaxmon tosh bo'lib otildingmi, tushgan joyingda tosh qot, vassalom!

Shoira. O'rgildim nasihatchi choldan.

Akbar (qizlarning so'zu qiliqlaridan hayratga tushib). Oldin gapni eshitinglar, oydinlarim. Fol ochavermanglar... Gap shundaki, (chaynalib) o'zlaring yaxshi bilasizlarki, akalaring O'tkirbek, ko'p yildan beri katta viloyatning markazidagi dovruqli, mashhur bir korxonani boshqaradi.

Qizlar. Bilamiz.

— Omad tilaymiz.

— Sog'inganmiz.

Akbar. Barakallo! O'sha erda palak otib, bola-chaqa ko'rib, ko'p hurmatu e'tibor topgan.

Qizlar. Faxrlanamiz.

— Martabalari yanada baland bo'lsin.

Akbar. Akalaring bittagina o'g'limiz, bosh farzandimiz. Ko'pdan meni o'z uyiga olib ketmoqchi bo'lib yurganidan xabarlaring bor.

Shoira. Bor, bilamiz.

Mohira. Rozi emasmiz.

Tohira. O'zimizga keraksiz.

Akbar. Qisqasi akangiznikiga doimiyga ko'chib borishim judayam zarurat bo'lib qoldi. Doimiyga.

Shoira. Doimiyga?! Yo, tavba, yo, tavba.

Tohira. Nima, nima?! Butun umringiz o'tgan, o'tayotgan, mehringiz bilan obod bo'lgan shunday xonadonni kimga tashlab ketmoqchisiz? O'ylayapsizmi o'zi?

Mohira. Bunday daxmaza fikr qaydan kela qoldi boshingizga?

Shoira. «Otang kosmosga ucharmish» desalar ishonardim-u, lekin bunisi... yo, tavba, yo, tavba!

Akbar. Avvalo, tashlab ketish haqida gap borayotgani yo'q. Xudoga ming shukurki, boshingizda (kuyovlarini bir-bir ko'zdan o'tkazib, faxrlanib)

qarchig'ayday-qarchig'ayday erlaringiz bor. Har biri osmondagi yulduzni uzib olaman deydi.

Mohira. Yaxshi gaplaringiz uchun rahmat, otajon.

Akbar (Adhamga ishora qilib). Birlari, ya'ni Adhamjon — huquqshunos. Adolat taroziboni.

Bahrom (chetga). Adolatning uyini kuydirib yurganlardan biri shu-ku.

Akbar (Bahromni ko'rsatib). Ikkinchi kuyov — Bahromjon el sog'lig'i xizmatida. Tabiblar sardori! Biznes sardori!

Botir (Adham quloqiga). Sardor emish. Qamalib ketishiga bir bahya qolganda, arang olib qoldik-ku o'rta tushib.

Akbar (Botirni ko'rsatib). Mana bu kishim «Ekosan» rahbarlaridan. Ozodalik posboni.

Adham (chetga). Taroziyon! Sardor! Posbon! Xudo beraman desa, hech gap emas! Rahmat, amakijon.

Akbar. Barakallo! Umrlaringizdan baraka topinglar.

Mohira. Turmush o'rtoqlarimizning borligi, uddaburonligi, xudoga shukur, katta baxtimiz... Lekin, siz-otajon, nega bunday xayolga bor-din-giz? O'ylab ko'rdingizmi?

Akbar. O'yladim. Lekin na chora? Akalaringni boshiga og'ir ish tushib qolibdi.

Mohira (hayratdan uchib tushib). Nima, nima? Qanaqa og'ir ish?

Akbar. Kelinoying qattiq betob bo'lib, xastaxonada emish. Sizlarga bildirmagan edim.

Qizlar kutilmagan bu xabardan iztirobga tushib, garangsib qoladilar.

Akbar. Demak, u erga tezda etib borishim zarurat bo'lib qoldi, qizlarim, zarurat.

Tohira. O'sha joylarda judayam o'ralashib qoldilar-da...

Shoira. Darhol jo'natmaydilar, katta doktorlarga ko'rsat-may-mizmi...

Akbar. Ishlari tig'iz akangning. Unga ham oson emas.

Mohira. Ko'z tegdimi deyman-da oilamizga.

Akbar. Endi bu yog'ini o'zlaring kelishib hal qilinglar. Xohlanglar birga turinglar yoki bittalaringizga tortiq qilinglar yoki bolalarin-gizni joylashtiringlar. Baribir ertami-indin qo'shimcha joylar kerak bo'ladi... To'ylar qilasizlar... deganday.

Yoki... meros ma'nosida tushunib, mayli sotinglar... (Qizlar sarosimada bezovta bo'ladilar). Pulni bo'lishib olinglar. Kattagina mablag' bo'ladi. Men roziman.

Sizlardan ortiq boyligim yo'q.

Mohira. Iltifotingiz uchun rahmat.

Tohira. Bundan zo'r gap bo'lishi mumkin emas.

Shoira. Men yoshman, otajon, kenjatoyizman. Sizga aql o'rgatishim insofdan emas. Lekin... Lekin... Uy bu, menimcha, taqdir masalasi. Ollo-himdan berilgan bebaho ne'mat. U olib-sotib, almashtirib yuradigan buyum emas.

Bahrom. Unda butun dunyoni qamrab olgan oldi-sotti masalasini qanday tushunish kerak. Maxsus bozorlar mavjud-ku...

Botir. To'g'ri, mavjud. Hech kim inkor etmaydi. Lekin aniq, konkret bu xonadon haqida gap borar ekan, hammamiz o'ylanib qolishimiz tabiiy.

Shoira. Men ham shuni aytyapman-da.

Ota bu so'zlarni osoyishtalik va e'tibor bilan eshitadi.

Akbar. Mayli, sizlar bu masalani astoydil o'ylab ko'ringlar, men dori ichib kiraman (chiqadi).

Adham (faylasufona). Uy, xonadon, oila degan tushunchalarni qandaydir jismoniy, mangu qotib qolgan narsaga aylantirib, uni to'rt devordan iborat, buzilmas-surilmas bir maskan deb qarash, aslini olganda, ibtidoiy, jo'n bir gap.

Bahrom. Obbo, rosa falsafaga aylantirib yubordingiz-ku, aka. Shuni oddiy qilib aytsangiz bo'larmidi?

Adham. Yo'q. Bir narsa haqida fikr qilib, hukm chiqarayotganda o'sha narsaning mohiyatiga, mag'ziga e'tibor berish kerak.

Bahrom. Xo'p, xo'p. Davom eting.

Adham (o'ylanib). Mening nazarimda, uy, xonadon, oila degani avvalo bu katta ruhiy, ma'naviy, hatto ilohiy bir hodisa. Uni bitta nuqtaga bog'lab, zanjirband qilib bo'lmaydi. Oila, xonadon joyini o'zgartirishi, zamonga hamnafas bo'lishi, shaklu shamoyilini yangilashi, yangicha ma'nolar kasb etishi tabiiy. (Mohiraga) Yuring, naryoqqa chiqaylik, xonim, qulog'ingizga aytadigan gapim bor (chiqishadi).

Botir (o'zicha). Hammalari o'z manfaatlarini o'ylab... (Shoiraga) Siz bilan biz hushyor turishimiz kerak. Gap xonadonni o'zlashtirish haqida boryapti.

Shoira (hayratda). Otamiz qiziq gapni boshladilar-ku. Nahotki, akamdan chiqyapti bu gap? «Oila – to'rt devor oralig'idagi kichik bir dunyocha emas... balki mehru muhabbat, qon va jon birligi — jamiyatning oltin mehvari» deb o'qiganmiz-ku buyuk kitoblardan.

Botir. Siz doim shunaqa o'qigan narsalaringizni pesh qilib, o'ralashib yuraverasiz, anqayib.

Shoira. Nima qil deysiz?

Botir. Siz kenja qizlarisiz. Agar otamiz aytgan gaplar chindan amalga oshadigan bo'lsa, uy sizning qismatingiz bo'ladi.

Shoira. Nega qismat? Bu nima deganingiz?

Botir. Haqiqiy jang boshlanganda bilasiz. Har qanday ob-havoga tayyor turishingiz kerak.

Shoira. Sizdan shu gap chiqib tursa-yu... Qo'ying-e...

Mohira (kulib). Muddao aniq-ku, nimani talashamiz, o'zlari hal qilib bersinlar...

Tohira. Menimcha, yaxshi o'ylanmagan gap bo'lyapti.

Akbar kiradi.

Akbar. Yo'q men bu masalani ko'p o'yladim, qizlarim. Xammasini o'yladim. Bu uyni yillar davomida sizlarga edirmay-ichirmay, ko'ngildagiday kiyintirmay, rizq-ro'zingizdan urib bo'lsa-da, qurdim, tikladim ustini yopdim. Uning har g'ishtiga, har bir mixiga mehru muhabbatim, ko'z nurim singgan. Ha, ha... Gapimda zarra g'alat yo'q. Onangiz rahmatlini bu uyga kuchi, mehri, zahmatlari... menikidan o'n chandon ko'proq. Buni o'zlaringiz ham bilasizlar...

Bu gapni eshitayotgan farzandlar rang-barang holatga tushib, otaning so'zlarini goh hayrat, goh taajjub, goh hayrixohlik bilan eshitadilar.

Inson uyni faqatgina bir boshpana yoki bir qo'nolg'a sifatidagina qurmaydi. Balki uy farzandlar baxtini, kelajagini o'ylab, yurak-yurakdan tiklanadirgan bir oliy koshonadirki, uni avlodlarga bir xotira sifatida qoldirgisi keladi. Shu uyda chirog'im abadiy yonib tursin, to'y-tomoshalar gurillasin degan buyuk bir orzu bilan tiklaydi. Men ham shu ishga o'zligimni baxsh etdim. Bu uy, aslini olganda, onangizni va mening sizlarga qoldirajak bisotu merosimizdirki... buni xuddi shunday tushunishlaringizni istayman.

Ko'ziga yosh olib, zalni aylanib, marhuma ayolining suvratiga qadalib qoladi.

Meni to'g'ri tushuninglar, qizlarim. Aytganlarim nasihat ham, vasiyat ham emas. Balki hayotda yuz beradigan oddiy voqealardan biri. Men ham uzoq bir mamlakatga ketayotganim yo'q. Poezdga bir kechalik yo'l, xolos. Doimo ko'rishib turamiz, nasib bo'lsa. O'ylay-o'ylay, shu joyga kelib to'xtalдим, qizlarim.

Tohira. Noto'g'ri kelib to'xtabsiz-da, otajonginam.

Mohira. Kim unib-o'sgan joyini tashlab, begona bir manzilga ko'rpa-to'shak orqalab ketadi?

Akbar. Begona manzil dema, Mohirajon. Avvalo hamma shaharlar ham o'zimizniki! O'z diyorimiz! Qolaversa, akangning ozmuncha mehnati singganmi o'sha joylarga? Axir, kelinoying u jiyanlarning ham o'sha joydan-ku.

Shoira (his-hayajonga to'lib). Baribir, baribir! Bu uyda onajonim kelin bo'lgan bo'lsa, otajonimning navqiron yoshligi o'tgan bo'lsa, hammamizning kindik qonimiz to'kilgan bo'lsa... kimning boshiga keladi bunday mudhish fikr? Men aslo hazm etolmayman.

Suhbat goh hazil aralash, goh jiddiy tus olib davom etarkan, Botir bahs o'zanini boshqa yoqqa barmoqchi bo'ladi.

Botir. Kelinglar, kundalik gaplarga o'taylik. Idoralardagi mujmal, boshog'riq savdolarining o'ziyam etib ortadi. Xo'sh desak, kecha bozor aylandim. Rastalarni to'ldirgan rang-barang meva-chevayu yuz tusdagi noz-ne'matlardan ko'zu ko'nglim yayrab, ko'kragim tog'day ko'tarildi.

Adham. Narx-navo tishlab olmadimi?

Botir. Yo'q. Chidasa bo'ladi.

Bahrom. Haqiqatdan ham. Odamning ko'zi qamashadi.

Adham. Lekin mana shu farovonlik qadriga hamisha ham etayapmizmi? Bu – muammo.

Botir. Rost gap, noshukur bandalar kam deysizmi?..

Bahrom. Holbuki, Qur'onu karimning o'zi ham isrofni rad etadi.

Adham. O'g'lingni uylantirmoqchimisan – uylantiraver, qizingni erga bermoqchimisan – beraver, o'g'ilchangni sunnat qilmoqchimisan – qilaver, lekin nima uchun yarim shaharni saharda oshga chaqirib... Ey-y-y, bari to'qlikka

sho'xlikdan. Isrof va insof! Odam ezilib ketadi... Yana erta tong-saharada, timirskilanib oshga borishim kerak.

Shoira (o'rnidan sapchib turib). Hey, yigitlar, pochchajonlar, bu gaplaringiz to'g'ri ham deylik. Lekin bu oqshomgi oilaviy o'tirishga nima aloqasi bor?

Tohira. Uy masalasiga nima aloqasi bor deyaver, uyalmay.

Shoira. Tushunganingiz uchun rahmat.

Adham. To'g'ridan-to'g'ri aloqasi bor. Bozor, to'y, isrofgarchilik haqida so'z boryaptiyu... go'yo... lekin hammaning xayolida uy!

Bahrom. Juda quyuqlashtirib yubordingiz-ku, Adham aka.

Botir. Baribir huquqshunossiz-da, Adham aka. Tilda nima, dilda nima, bilib turasiz.

Shoira. Bosh og'riq gaplarni qo'yinglar, opalar, pochchalar. Bu erda hayot-mamot masalasi boryapti. Yig'ilishimiz sababini tushungandirsizlar.

Akbar. Barakallo, qizim. Gapni ertaga qoldiraylik. Dam olinglar.

Akbar ota bolalarga mehr bilan boqib, har birini erkalaydi.

Akbar. Bolajonlarim, hamma xonalarni aylanib chiqib, joylaringni tayyorlatib qo'ydim. Charchasalaring, dam olasizlar.

Bahrom. Ayni muddao.

Adham. E, haqiqat bor ekan-ku, Bahromjon.

Shoira. Qo'shiq aytaylik, raqs tushaylik. Hozirdan uxlab, nima qilamiz.

Tohira. Uy masalasi-chi?

Mohira. Qo'yib tur, Tohirajon, bu gaplaringni.

Shoira. Baribir bu gapni jim-jim, bosdi-bosdi qilib, aylanib o'tib ketib bo'lmaydi-ku.

Adham. Bugungi shodlikda kechagi g'amdan gapirmanglar, degan bir shoir.

Botir (faylasufona). Lekin g'amdan ham xoli yashab bo'lmaydi bu dunyoda. Yana bir shoir degan ekan: «G'amim ko'pdur, g'amim ko'pdur, nadandur bu, nadandur bu? Azaldan g'am suvi birla sug'orilgan badandir bu».

Shoira. Amiriy va Nodirabegim misralari!

Mohira. Mushoira bo'layotgani yaxshi. Musiqa bo'lsa, yanada yaxshi.

Sho'xrog'idan qo'yib yuborsangiz-chi, Adham aka.

Adham priyomnik tugmasini bosadi. Xonani quvnoq qo'shiq sadolari chulg'aydi. Davra yanada jonlanib, hammalari bir-birlarini mehr-muhabbat bilan siylaydi, kimdir raqs tushadi. «Bor ekansiz-ku!» «Yashavoring!» degan sadolar.

Akbar. Xayrli tun, bolalarim. Bir yog'i keksachilik, ruxsat bersangizlar, dam olsam...

Shoira. Bemalol, adajon, bemalol.

Akbar ota chiqmoqchi bo'layotganida, telefon uzoq jiringlaydi. Ota telefon go'shagini ko'taradi.

Akbar (telefonga). Vo alaykum assalom, O'tkirjon. Hammasi joyida. Kelinim qalay? Singillaring, kuyovlaring ham kelishgan. Salom aytishyapti. Ha, ha. Bu oqshom qolishadi. Ertaga dam olish. Sizlarni kutamiz. Omon bo'l, o'g'lim (Telefon go'shagini joyiga qo'yadi). O'tkirbek o'g'lim ertaga ish yuzasidan Toshkentga kelayotgan ekan... Xudoga shukur. Ko'rishib qolsangizlar, ajab emas. Xursandchilikni davom ettiringlar. Hozircha xayr (chiqadi). Mohira (chetga). Xursandchilikni davom ettiringlar emish... Sekin portlaydigan bomba qo'yib ketdilar-u, davom ettiringlar emish. Tomi ketgan, deganlari rost ekan-da. Ko'ramiz!

Barchalari lanj bir holatda xonalariga chiqishadi.

PARDA

IKKINCHI PARDA

Qizlar va kuyovlar ota-ona xonadonida qolishgan. Uzoq bahsu tortishuvdan so'ng toliqqan oila ahli go'yo oromga cho'kkanday. Zaldagi kichik bir chiroqqina yog'du sohib turibdi.

Tun yarmidan oshganda chap tomondagi eshik ochilib, Mohira va eri Adham izma-iz chiqishadi. Ular ichki liboslarda. Uyoq-buyoqni alanglab kuzatib, hamma uyquda ekanligiga ishonch hosil qilishgach, divanga o'tirib, chiroqlarni yoqib, charog'on zalni tomosha qilishadi. Havaslar, orzular bir dunyo.

Mohira. Nima gaplar bo'layotganini sezyapsizmi, Adham aka? Cholning qarori qat'iyga o'xshaydi. Akam otamni to'rt-besh yildan beri o'sha olisdagi uyiga tinimsiz chaqirgani-chaqirgan.

Adham. Sezayapman, jonim. Sezganda qandoq. Shunday katta dargohni kimgadir hadya etib ketish kerak bo'ladi. Bu osmondan tushgan bebaho davlat. Bunday imkoniyatni qo'ldan chiqarish... borib turgan ovsarlik.

Mohira. Kimga qoldirmoqchi? Bunisi muammo.

Adham. Kimga bo'lardi. Anovi erkatoy ikki singiljoningizdan biriga-da.

Mohira. To'g'ri aytasiz, singiljonlardan biri changal solishi turgan gap.

Adham. Siz-chi? Siz, axir, kattasiz, gapingiz kesishi kerak. Faqat lallaymang-da, xonimcha.

Mohira. Nima gap bo'lsa, nuqul menga oshirasiz. Yurist degan odam qonunni peshkash qilib, hamma ishni shartta-shartta hal qilib tashlamaydimi?

Adham. Oson o'ylaysiz-da.

Mohira. Mahallamizdagi bitta kichkinagina advokatning qilib qo'ygan ishlarini ko'ring. Uch qavatli koshona, yozgi-qishki hammomlari bilan. Sizga torgina kulbayam bo'laveradi.

Adham. Men unaqa yulg'ichlardan emasman.

Mohira. Hamma o'zini yuridik o'qishlarga bekorga urmas ekan-da.

Adham. Haddan oshmang va shoshmang. Bizgayam xudo berib qolar, mehnatimizga yarasha.

Mohira. Hamma narsa qil ustida turibdi hozir. Bir lahzani behuda o'tkazib

bo'lmaydi.

Adham. Xo'p, xo'p, xo'p. Singillaringiz ham tinch turmas.

Mohira. Tohira deganimiz ichidan pishgan. Hamma ishni imi-jimida bitiraman deydi. Mug'ombir, pixini yorgan. Bolalikdan shunaqa edi.

Adham. Shoiraxon-chi?

Mohira. Shoir hali yoshu lekin chatoq. Mahmadona. Erining burnidan ip o'tkazib olgan.

Adham. Eri «Ekosan»da. Nima ish qilishadi shular, haligacha bilmayman.

Mohira. Birovdan olib, birovga berish. Lekin ko'p savobli, xayrli ishlar ham qilishadi...

Adham (kulib yuboradi). Bilmagan narsangiz yo'q, Mohira. Qo'ying, endi o'zimizning gaplarga o'taylik.

Mohira. O'zimizning gaplarga o'tsak... (eshiklardan birini ko'rsatib). Mana bu xonani o'zimizga yotoqxona qilib olamiz. Keng-mo'lgina. Chamalab chiqdim. Elita pardalardan tutilsa bormi, rohatning koni bo'ladi. Xurragingiz ham eshitilmaydi bolalarga... (kuladi).

Adham (hazilga olib). El aro bordir masal: xurrakni durrak tortadur...

Mohira. Tan olganingizga qoyilman. Farg'onaning bor askiyasini yig'ishtirib kelgansiz uyimizga.

Adham (erkalab). Tushunganingiz uchun rahmat... Lekin, menimcha, tepadagi xona tuzukroqmi deyman yotoqqa. Har holda, ko'zdan nariroq. Balkonchasidan butun dunyo ko'rinib turadi. Oftob ham tushadi.

Mohira. Gapingizda jon bor, xo'jayin. Yonidagi xonani bolalarga beramiz.

«Dom»ning qavatlarida turaverib ezilib ketishgan, bechoralar.

Adham. Bechoralar demang. Hali bu uyda shunaqa to'ylar o'tkazamizki... Mana bu zalni qarang. Baland, bahavo. Cholning didiga qoyilman. Devorlardagi suvratlarni aytmay sizmi. Uzukka ko'z qo'yganday. Koshonayi shohona!

Mohira. Bularning hammasini onajonim o'z qo'llari bilan joy-joyiga qo'ndirgan.

Adham. Qoyilman. Sizga ham ayajoningizdan ancha-muncha o'tgan...

Mohira. Nega endi ancha-muncha?!

Adham. Yuz foiz o'tgan demoqchi edim.

Mohira. Lekin... Bu uyning savdosi osonlikcha hal bo'lmaydi, nazarimda.

Adham. Jang bo'ladi deysiz-da?

Mohira. Bo'ladi. Bo'lganda qandoq.

Adham. Menimcha, yaxshisi, uyni sotib pulini bo'lishtirib olgan ma'qul. Six ham kuymaydi, kabob ham.

Mohira. Oson o'ylaysiz-da. Anovi Shoir hali Botirni ko'rdingizmi? Rosa jingirtob bo'lishdi. Nafs o'lsina, nafs o'lsin.

Adham. Yulib qolay deydi-da. Jig'ildon ishlab turibdi. Shoirani olishiga ko'ndirgunimizcha o'lib bo'luvdik. Endi xo'jayin!

Mohira. Chora, chora, chora! Chora topish kerak!

Adham. Sotsang, em bo'lib ketadi. Bo'lmaydi. Katta farzand sifatida joyning o'zini egallash kerak.

Mohira. Jimgina turibmanda hozircha. Hali o'zimni ko'rsataman. Ikkita bolamizning kelajagini ham o'ylashimiz kerak-ku, dadasi.

Shu payt ikkinchi eshik ochilib, undan Tohira va Bahrom chiqib keladilar. Uxlashmagani bilinib turadi. Oldingilar — Mohira va Adham chiroqni o'chirishga ulgurmay, o'zlarini panaga oladilar va bularni kuzatadilar.

Tohira. Kecha chiroq o'chirilmay qolgan ekan-da. (Katta chiroqni o'chiradi).

Bahrom aka, nimalar bo'layotganini fahmladingizmi?

Bahrom. Ha. O'ta jiddiy gap. Hayot va mamot masalasi!

Tohira. Judayam fojeaviy voqeaga aylantirib yubormang. Buning tag-tagida katta omad manaman deb barq urib turibdi.

Bahrom. Siyosiy tus bermang, Tohiraxon. Avvalo, bu uyning yashashga o'ng'ayligini o'ylang. Deyarli shaharning markazida. Metro bekatiga to'rt qadam. Bolalar bog'chasiyu poliklinika yonida...

Tohira (kulib yuboradi). Bir ayoldan eri so'ragan ekan: «Meni-ku yaxshi ko'rmas ajrashib ketar ekansan, nega tekkan eding?» — desa, ayol: «Sizlarnikidan ishga qatnash ancha qulay edi», — deb javob bergan ekan (kulishadilar).

Bahrom. Haligi gaplar, uy masalasi aytilayotganda, opalaringizning ko'zlari yonib, o'ynab ketganligini ko'rdingizmi? Bir dunyo xazina topib olgan telbalarday...

Tohira. Bojalaringiz-chi, bojalaringiz? Bu baxt erdan chiqdimi, osmondan tushdimi, deb sapchiyman deydi-yu, o'zlarini arang-arang tutishadi, zo'rma-zo'raki...

Bahrom. Tayyorga ayyor. Nafs odamni ming ko'yga soladi. O'rmondagi sherni o'ldirgan mard emas, o'z ichidagi nafs itini o'ldirgan mard, degan ekan bir dono. Bularingizda bunaqa matonat etishmaydi.

Tohira. Nafs emas, meros degan bir daxmaza hammani bo'g'zidan oldi, chamamda.

Bahrom. Ayniqsa, katta opangiz Mohiraxon bilan Adham akaning holatini ko'rsangiz. Voy, tavba, odam ham shuncha yuztuban ketadimi, yoqamni ushlabman. Yonib ketyapman, yonib!

Bu gaplarni panada eshitib turgan Mohira va Adham o'zlarini qo'yarga joy topolmaydi.

Adham (ularga eshittirmay). Doktorning gapini qarang, Mohiraxon. O'zi doriga resept yozib berishdan boshqa hech baloni bilmaydi-yu...

Mohira. Aptekachilar bilan til biriktirib olgan-da, bu xorazmlik yoshuli pochchamiz, o'lgiday pishiq.

Adham. Bu ham etmaganday, yana Malhamiy degan taxallus bilan g'azallar ham yozib yuradi, o'zicha.

Mohira. Lekin... bugungi ahvollarini ko'rdingizmi?

Adham. Ko'rdim. Sezib turdim. Ichlari yonib-yonib ketayotganiniyam bildim. Ular ikki qo'lini og'ziga baravar tiqib olganlardan. Bir tanga uchun o'zlarini tomdan tashlashga ham tayyor. Ular uchun muqaddas narsaning o'zi yo'q.

Panada turgan Tohira va Bahrom bu so'zlarni go'yo eshitmaydilar.

Mohira (o'ylanib). Aslida singillarimdayam ayb yo'g'u... Domda yashashning bemaza tomonlari ko'p-da. Jonga tegib ketadi. Bir mehmon kutib yayray olmasang.

Tor yo'lakchalardan elkangni qisib, qimtinib o'tishing kerak.

Adham. Ko'ngil keng bo'lishi kerak, Mohiraxon. Ikkala bojayam ilonni yog'ini yalaganlardan. Shaxsiy manfaati yo'lida shaytonga dars berishadi.

Mohira. Timdalab-timdalab tashlay deymanu... yana o'zimni bosaman.

Madaniyatimga to'g'ri kelmaydi, o'lsin.

Adham. Uning uchun madaniyatning o'zi bo'lishi kerak, oyimcha.

Mohira. Bas qiling. Kulishadigan vaqt emas.

Bu gaplardan go'yo bexabar Tohira va Bahrom zalning ikkinchi burchagida arang-arang o'zlarini bosishib turibdi. Kutilmaganda Tohira xandon otib kulmoqchi bo'ladi-yu, o'zini tutib qoladi.

Bahrom. Nima qilyapsiz? Nega kulyapsiz? Bir narsa ochilib qolibdimi?

Tohira. Jim... ana ular, uxlab yotganlar eshitib qolishmasin, sharmanda bo'lamiz.

Bahrom. Nima, oshiq-ma'shuqlik qilib o'tiribmiz-da, nimasi yomon?

Tohira. Mehmon deyishganiga aytaman-da. Esingizdami, uyimizga bir tanish og'ayningiz oilasi bilan Qarshidanmi, Termizdanmi mehmon bo'lib kelgandi... O'zimiz ne ahvoldamizu...

Bahrom. Uyning qarzlaridan endigina qutilgan paytlarimiz edi. Esimda, bir haftacha turishdi.

Tohira. Bir hafta turishdi-yu, hammayoqni qaroqchi urganday ship-shiydam qilib ketishdi, azamatlar.

O'sha mehmonlarni, ularni injiqliklarini eslashib qotib-qotib kuladilar.

Bahrom. Gapir, gapir. Nima bo'luvdi?

Tohira. Diydası qattiqroq odam ekan, ustma-ust topshiriq bera boshladi:

– Uy ichida kiyib yurishga pijama beringlar!

– Rezinkasini kengroq qilib bering, belimni qisyapti.

– Vokzaldan chamadonimizni olib kelinglar. Mashina topolmagan edik.

– Achchiqqina tovuq sho'rva qilinglar, bolamiz shamollab qolibdi yo'lda.

– Choyni o'tkirroq damlang.

– Bolamga «skoriy» chaqirtiring va hakoza.

– Kichkina qizalog'ining shumligini aytmaysizmi? Pardalarni tortqilab tashladi.

Dori-darmonga ham pul bermaydi, transportgayam to'lamaydi.

Bahrom. Eslatma, xotin, yuragim gumirib ketyapti.

Tohira. Ha, aytmoqchi...

Bahrom. Yana nima gap?

Tohira. Pastdagi ikki yondosh xonani birlashtirib, xususiy shifoxona ochsak, pulning yog'ilishini o'shanda ko'rasiz...

Bahrom. Aqlingizga qoyilman! Bu mening eng azaliy orzuyim-ku! Butun mamlakatga dovrug'i ketgan «Bahromshifo» dargohini yaratamiz. Odam degani oqib keladi. Yo'llarini o'ylab qo'yganman.

Shu payt tepadan Shoir va Botir asta-sekin tushib keladilar.

Shoira (hammayoqni alanglab kuzatib). Kimlardir gaplashganday bo'ldimi-ey xayolimda, chiroq yonib-o'chganday ham bo'ldi.

Botir. Qo'ysang-chi, xotin. Senga shunday tuyulgan bo'lishi mumkin. Hozir qotib uxlab yotishibdi, tush ko'rishib... azamatlar.

Shoira. Uxlashib bo'пти. Hammasining oromi buzildi. Paytavasiga qurt tushdi, nazarimda. Ikkala opam ham tipirchilab qolishdi. Erlarining ham ko'zlari ola-kula. Tepadan shalop etib tushgan omad kimni tinchitardi. Tekinxo'r ko'payib ketdi-da hozirgi zamonda.

Botir. Bu gapingda jon bor, xotin. Bir zo'r og'aynim bo'lardi. Jonini berishga ham tayyor edi men uchun. Mansabimdan bir pog'ona oshay-oshay deb, masala hal bo'lib turganda oyog'imdanda chaldi-da. Bilmaslikka oldim. Ey hozir insof qolmadi odamlarda. O'ng ko'zing chap ko'zingni o'yaman deydi, yaxshiyam burun bor o'rtada.

Shoira. Mana, jonajon opaginalarimni ko'rdingiz. Uy masalasini eshitiboq o'zlaridan ketishdi. Bildirmaslikka harchand urinishmasin... Lekin ich-bag'irlari yonib-yonib ketyapti.

Botir. Yomonam bezovta bo'lishdiki, quloqlariga gap kirmasdi.

Shoira. Nimasini aytasiz.

Panada turgan opajonlar — Tohira, Mohira bu gaplarga arang chidayotganini sezib olish qiyin emas.

Botir. E... ulardan ko'rayam anovi so'tak bojalarimning ahvolini ko'rmadingiz-da, yo piray, aqldan ozishlariga sal qoldi. Xuddi shu imoratni qurishga besh tangalari ketganday...

Shoira. Tekinxo'rlik shunchalikki, bechora cholning iztirob bilan aytayotgan so'zlarini tinglashmadi ham.

Bu gaplarni eshitgan bojalar ahvolini ham tomoshabin ko'rib turadi.

Shoira. Botir aka, otamning qarori qat'iyga o'xshaydi. Bir chetda qolib ketmaslik uchun keskin chorasini topish kerak tezda!

Botir. Qanaqa chora bo'lishi mumkin?

Shoira. Men, axir, kenjatoy qizlariman-ku. O'z-o'zidan, uy menga tegishli bo'lishi kerak. Qonun ham, ming yillik rasmu rusum ham, meroslik haq-huquqi ham shuni tasdiqlaydi.

Botir. Yo'q. Bu kamlik qiladi. Meros teng bo'linishi shart. Opalaringiz o'z haqlaridan kechishmaydi, o'lsa ham.

Shoira. Toping! Yo'lini toping! Ertaga choy ustida bu gap yana qo'zg'aladi. qat'iy fikr bilan borishimiz kerak.

Botir. Ey, xudo, tinchgina yurgan edim. Oyoqning tagidan chiqib qoldi bu g'alva.

Shoira. Halva demang. Osoniga o'rgangansiz-da. Domimizni ham otam olib bergan edi. Noshudsiz!

Botir. Tilingga erk berma, xonimcha. O'zingni menga tiqishtirishgan ming bahonayu va'da bilan...

Shoira. Nima aybim bor ekan tiqishtirib?! O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir deydilar. Mana bu zalda o'tirganlar nima deb o'ylaydi? Darvozamiz bo'sag'asini yalayverib, sirpanchiq qilib yuborgan o'zingiz-ku!

Botir. Bo'ldi, bo'ldi. Devorning ham qulog'i bor...

Shoira. Lekin...Opalarimning maqsadi bo'lakcha...

Botir. Ya'ni?

Shoira. Bilmayapsizmi, mana shu ko'rkam oilaviy koshonamizni pullab...

Botir. Jig'ildonidan o'tkazishmoqchi...

Shoira. Yo'q. Biri o'g'lini uylantirib, biri qizini chiqarib olishi kerak! Bu katta xarajatni mana shu imorat ko'taradi. Hozir quda tomonga nima-nimalar hadya etilishini bilasizmi? Chollariga hassa, kampirlariga par ko'rpayu tilla ko'zoynak, yoshlariga qishki-yozgi soyabongacha...

Botir. Voy, g'alamislar-ey. Lekin... Shoiraxon, bir tomonlama o'ylab, o'zingizcha...

Shoira. Yo'q. Lekin bu savdoni hal qilishda men boshqacha yo'l tutaman.

Botir. Masalan?

Shoira. Bu maxfiy. Hatto sizga ham ayta olmayman.

Botir. Maxfiy?

Shoira. Ha.

Zalning ikki burchagiga tiqilib olgan ikki opa-singil va ikki boja Shoira va Botir so'zlarini eshitib, ming ohangga tushadilar.

Shoira. Agar shu gaplarimizni eshitishsa bormi, xudo ko'rsatmasin, ikki opam ham o'zidan ketib, «skoriy»ga ravona bo'lishadi.

Botir (bojalariga ishora qilib). Ular ham-da, anovi ikki takasaltangni aytaman.

Nuqul yog'liq joy qidirishadi. Shular bilan boja bo'lib qolganimga pushaymonligimni bilsangiz edi...

Shoira. To'xtang, to'xtang. Demak, menga uylanganingizga pushaymonsiz? Voy, sharmanda-ey. Eb turib ma'raysiz-a. Bizlarga qo'shilib odam bo'ldingiz-ku. Yurgan bir ipirisqi edingiz!

Botir (baqirib). Kim ipirisqi!

Shoira. Ovozingizni o'chiring. Tepadagilar eshitadi. Tisss...

Mana shu gap-so'zlar avj nuqtasiga etganda, kimningdir toqati chidamay, chiroqni yoqib yuboradi. Hammalari bir-birini ko'rishib, goh xijolat, goh hayrat, goh dahshatga tushib, bir-birlarini kuzatadilar. So'zsiz holat bir necha daqiqa davom etadi.

Tohira (ko'zlarini ishqalab). E, ha, Mohiraxonu Shoiraxonlar, qorong'ida topishibsizlar-da, aybi borlarday...

Shoira (xijolatdan ko'zlarini bekitib). Uyqu kelmadi, balkonga chiqqandik...

Botir. Shaharni tomosha qildik. Voy-bo', chiroqlarni ko'rsangiz. Marjon, marjon, marjon!

Mohira. Chiroqlarni tomosha qilish uchun ota-onanikiga ataylab kelish kerak ekan-

da.

Shoira. Domning balkonidan hech narsa ko'rinmaydi-da, opa.

Mohira. Opa dema, uyatsiz. Bir kecha tinchgina yotsalaring, o'larmidinglar.

Dushgacha bor-ku xonaning ichida.

Shoira. O'zingiz-chi, o'zingiz?

Mohira. Boshim og'rib uxlay olmadim. Dori ichdim, sovuq choy bormikin, deb chiqqan edim, yulduz sanashga emas.

Shoira. Bahonangiz qursin. Unda Tohiraxonim nima ish qilib yuribdilar yarim kechada timirskilanib, burchakka tiqilib.

Tohira. Bolaligim o'tgan uyni obdon sog'ingan ekanman, uyquning bahridan kechdim-da.

Mohira. Unda kuyoving nega ergashib yuribdi, dum bo'lib? Xonalaringda hamma narsa – dush ham bor edi-ku... Hammani bezovta qilib...

Tohira. Uyqu kelmagandan keyin nima qilish kerak, opajon? Sizga o'xshab kimning uxlagan-uxlamaganini tekshirib yuraymi?

Mohira. Tilingni zahari qursin. Birdan ichlaringga qurt tushib qoldi, «boboy»ning gapini eshitib... o'l, qizg'anchiq! Nafs bandasi!

Shoira. Otajonlari «boboy» ham bo'lib qoldilar...

Mohira (Tohiraga). Asli, qizg'anchiq, nafs bandasi eding. O'shanday bo'lib qolding.

Tohira. O'sha o'zingiz, opajon! Uchchiga chiqqan qurimsoq, ziqna bo'lgansiz.

Hamma narsani «bu meniki, bu meniki» deb bag'ringizga bosib, dod solib, sharmandalik qilardingiz.

Mohira. Voy, tavba! Voy, tavba!

Tohira. Buni qo'ni-qo'shnilar ham yaxshi bilishardi.

Mohira. Musichai begunohman deb chiranishni qarang, tirmizak!

Tohira. Nafsingiz oldida hech narsadan qaytmasdingiz.

Mohira. Nima bo'пти? Odam borki, nafs bor. Sen farishtamiding? Kuyovnikidan kelgan sarpaning ichida u yo'q ekan, bu yo'q ekan deb faryod urganingni hamma eshitgan, endi esa tiling bir qarich.

Shoira. Hoy, sharmanda opajonlar, aqldan ozdinglarmi, nima balo?! Eshitgan nima deydi? Odamlar nima deydi? Odamning har narsa bo'lgani yaxshi-ey...

Tohira. Mayli, nima desa desin. Menga desa, butun dunyo bilsin!

Mohira. Voy, tavba, o'zingdan chiqqan baloga, qayga boray davoga.

Adham (o'ylanib). Bugungi uyqusizlikning tub ma'nosini topdim!

Bahrom. Huquqshunos bo'lganingizdan keyin topasiz-da. Ayting, eshitaylik.

Hammalari. Eshitaylik, nima ekan?

Adham. Hammamiz ham o'z uylarimizga o'rganib qolgan kishilarmiz-da. Qay vaqti uxlab, qachon uyg'onish — bu odat, ko'nikma natijasi, albatta!

Bahrom. Bu gapdayam jon bor. Men ham bo'lak shaharlarda safarda bo'lganimda, eng zo'r mehmonxonalarda ham uxlay olmayman.

Adham. Sog'inasiz-da kelinni.

Botir. Aziz og'ajonlar, o'tlab ketyapsizlar. Bu erda tamomila boshqa sir-sinoat bor.

Adham. Qanaqa sir-sinoat ekan?

Botir. Mana shu uyning zamirida mujassam bo'lgan sir-sinoat uyqusizliklarning bosh sababi!

Bahrom. Yo, Olloh! Gapni kavlasa, gap chiqaveradi.

Tohira. Bu erkaklarning bilmagan narsasi yo'q.

Mohira. Bunaqa betayin gapni yig'ishtiringlar. Eshitgan odam nima deydi?!

Shoira. Nima desa desin. Bu gapni guldirdi-gup, o'raga sichqon tushdi qabilida bekitib bo'lmaydi.

Adham (ko'zlarini ishqab). Uyquning beliga tepdinglar-da, ishqilib. Ana, tong ham bo'zarib kelyapti.

Bahrom. Yana mashmasha davom etar ekan-da. Tinchlik bormi o'zi?..

Botir. Bo'lmaydi...

Shoira (birdan o'zgarib). Nega hammalaringga otajonimning tashvishi tushib qoldi? Xuddi o'tkazib qo'ygan joylaring borday?

Mohira. Ha, tinchlikmi, singiljon? Kenjatoyman deb bijillayapsanmi? Qonunlarda bunaqa gap yo'q. Mana, pochchang biladilar.

Tohira. Biror gap bo'lgandayam, hamma narsa o'rtada bo'ladi. Bir qadam u yoqqa, bir qadam bu yoqqa o'tish yo'q.

Adham. Shoshmanglar, shoshmanglar. Jahl kelganda, aql ketadi. Nafs quturganda, vijdon qochadi.

Shoira. Hov, pochcha! Vijdoningizni pesh qilavermang. Nima, bu imoratning poydevorini qo'yishganmisiz, tomini yopishganmisiz, g'ishtini terishganmisiz yo mixini qoqishganmisiz? Bilib turibmiz ko'nglingizdagi gapni. Yurist sifatida katta qo'llisiz, buni ham bilamiz.

Adham (jahllanib). Yuristligimga til tegizmang! Bilingizmi?! Men bu masalani cholning o'zlariga qoldiraylik deyapman. Hammalaringni insofga chaqiryapman, xolos...

Bahrom. Adham aka to'g'ri aytayaptilar. Yo'q erdan majoro chiqarish kerak emas. Tong otsin...

Botir. Yana qanaqa tong otishi kerak? Otib bo'ldi-ku...

Adham. Yana ozgina mizg'ib olaylik. Ertalab bo'lsin. Ungacha O'tkirbek akamlar ham kelib qolishar. Bu ishlarni aqlu idrok bilan bajargan maqbul...

Qizlar. Rost, rost. Yana bir mizg'ib olaylik. Qolgan gap ertalab bo'lar...

Xuddi shu gaplar asnosida eshik ochilib, zalga Akbar ota kiradi. Favqulodda holatdan hayratga tushgan qizlaru kuyovlar otaga sarosima ichida boqadilar.

Akbar. Xudoyimning o'zi kechirsin. Gaplaringizni to'la eshittim, bolalarim.

Kechasi namozga turib, uyqum qochdi-yu, sizlardan xabar olmoqchi bo'ldim.

Ko'rsam, bu ahvol. Barcha muddaolaringiz, mulohazalaringiz, tashvishlaringizdan ogoh bo'ldim. Bu ishim uchun sizlardan uzr so'rayman. Har bir odam o'zini oshkor etgani yaxshi. Men buni tushunaman. Buning uchun sizlarni aslo ayblamayman...

Lekin... (yon cho'ntagidan qandaydir dori olib ichadi). Suv beringlar, suv, suv (suv tutishadi)! Barchasi uchun sizlarga rahmat, bolalarim, ming rahmat! Men roziman. Bu dunyo, u dunyo roziman.

Hushidan ketadi. Hayrat ichida qolgan farzandlar chuvvos solib, ota boshida parvona bo'ladilar: birov suvga chopgan, birov telefonga yugurgan, birov sarosima

ichida... Butun xonadon o'ta bezovtalik bilan o'rtanadi.

- Ey, xudo, bu nima ko'rgilik!
- Nima kori hol bo'ldi, voy-dod!
- Dadajon, ko'zingizni oching!
- Gapimizni eshityapsizmi, dadajon?!
- Qarindoshlarga xabar qilinglar!

Hamma chirpirak bo'lib xona aylanishda davom etadi, qichqiriq, yig'i-sig'i xonadonni zabt etgan.

Dilbar (o'rtaga chiqadi). Hammalaring maqsadlaringga ettinglar! Ammalar, pochchalar, qora niyatlaring amalga oshdi! Ana endi uyni boshlaringga urasizlarmi, er bilan yakson qilasizlarmi — o'z ishlaring! (Yig'laydi).

Otaning kenja qizi Shoira Dilbarni yupatib, bag'riga bosadi. So'ng o'zini dadil tutib, davradagilarni bir-bir ko'zdan o'tkazadi.

Shoira. Yig'lama, Dilbarjon. Rost aytding. Bu uy, bu xonadon hech qachon, hech kimga sotilmaydi! Bu uy — hammamizning oltin belan-chagimiz, gavhar beshigimiz! Ajdodu avlodni bog'lab turadigan tillo ko'prik! Bilmaganlar bilib qo'ysinlar!

Botir (hayratda). Shoira, nimalar deyapsan?! Nega aljiyapsan! Bosh-qacha yo'l tutaman, maxfiy deb oliftagarchilik qilganlaring shungamidi?!

Mohira. O'zini begunoh musicha qilib ko'rsatyapti bu tirmizak! Josus!

Tohira. Buning niyati boshqa. Koshki bilmasak!

Shoira qat'iyat va g'urur bilan davrani yana aylanadi.

Shoira. Bu xonadon chirog'ini yoqib, uni doimo muqaddas va mustahkam saqlash — barchamiz uchun bosh vazifasi! Bu xonadonda kindik qonimiz to'kilgan. U — kichik vatanimiz, Vatan esa sotilmaydi!

Manba: Sharq yulduzi. 2010.- № 1.